



**JAMOLIDDIN AT-TURKIYNING XIV ASRGA OID "KITABU BULG'ATIL  
MUSHTAQ FI LUG'ATAT TURK VAL QIFCHAQ" QO'LYOZMASIDA AYRIM  
SO'ZLARNING QIYOSIY –LINGVISTIK TAHLILI. SO'ZLARNING MANTIQUIY  
KETMA-KETLIGI**

*G`aniyeva Barchinoy Maxmud qizi,  
magistr NamDU*

***Annotatsiya:** Turkiy tillar juda qadim tarixiy yo`lni bosib o`tib hozirga qadar sezilarli o`zgarishlarsiz juda ulkan hudud aholisining asosiy so`zlashuv tili bo`lib kelmoqda. Ayni paytda turkiy tilda yozilgan manbalarni o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shulardan biri Jamoliddin at-Turkiyning XIV asrga oid "Kitabu bulg'atil mushtaq fi lug'atat turk val qifchaq" qo`lyozmasidir. Bu qo`lyozmani tadqiq qilishda undagi so`zlarni hozirgi o`zbek tilidagi so`zlar bilan qiyoslab o`xshash va farqli jihatlari tahlil qilingan. Ayrim so`zlarning ma`nosini aniqlashda shakldoshlik hosil bo`lgan vaziyatlarda, ularning o`zaro mantiqiy bog`lanishlariga ham e`tibor qaratildi.*

***Tayanch so`zlar:** qiyosiy tahlil, fonetik o`zgarish, shakldoshlik, mantiqiy bog`liqlik, qipchoq-turkiy.*

***Annotation:** Turkic languages have passed a long historical path and have maintained as the main language of the population of a very large area without significant changes until now. Nowadays, it is important to study sources written in the Turkic language. One of them is "Kitabu bul'gatil mushtaq fi lug'atat turk wal qifjaq" manuscript of Jamaluddin at-Turki dating back to the 14th century. In research of this manuscript, the words in it were compared with the words in the modern Uzbek language, and their similarities and differences were analyzed. In determining the meaning of certain words, attention was also paid to their logical connections in case of a similarity in their form.*

***Key words:** comparative analysis, phonetical change, homonyms, logical relativity, qifjak – turkic.*

Turkiy tillar oilasida 30 ga yaqin til bor. Bu tilda so`zlashuvchilar, asosan, Osiyo, shuningdek, Yevropa, Amerika, Avstraliya mintaqalarida istiqomat qilishadi. Turkiy tillar oilasiga quyidagi tillar kiradi: o`zbek, uyg`ur, qirg`iz, qozoq, qoraqalpoq, turk, ozarbayjon, turkman, gagauz, qrimtatar, qorachoy-bolqar, qo`miq, no`g`ay, tatar, boshqird, oltoy, shor, xakas, tuva, yoqut, chuvash va boshqalar. Bu tillar hammasi qadimgi turkiy tildan ajralib chiqqan. Demak, hozirgi barcha turkiy tillar uchun qadimgi turkiy til umumiy til(bobo til) sanaladi. Turkiy tilli aholi Uzoq Sharqdan Markaziy Yevropagacha, Taymir yarimorolidan Bolqon yarimoroligacha tarqalgan. Turkiy tillar uzoq tarixga ega bo`lgan yozuv madaniyatiga ega. Bu tillarga mansub bizgacha yetib kelgan dastlabki yozma yodgorliklar O`rxun-Enasoy obidalaridir. Shuningdek, Mahmud Qoshg`ariyning "Devoni lug`at it-turk" asarida ham eng qadimgi davrlarga oid juda ko`p adabiy parchalar bor<sup>1</sup>. Ana shunday yozma manbalardan yana biri Jamoliddin at-Turkiyning XIV asrga oid "Kitabu bulg'atil mushtaq fi lug'atat turk val

<sup>1</sup>Hozirgi O`zbek adabiy tili: Akademik litseylar uchun ma`ruzalar matni/ A.Anorbekova, Sh.Mirzayeva. – T.: Noshir, 2011. – 316 b.

qipchaq" qo`lyozmasidir. Yuqoridagi fikrlarning dalili sifatida bu qo`lyozma matnini tahlil qilishga kirishdik.

“Bulg`atil mushtaq” qo`lyozmasidagi so`zlarni tahlil qilar ekanmiz , ulardagi qipchoq-turkiycha so`zlarning aksariyati hozirgi o`zbek tili bilan deyarli farq qilmasligi, o`zbek tilining tub ildizi juda qadim tarixga ega ekanligini ko`rsatadi. Qo`lyozmadagi qipchoq- turkiycha so`zlarni hozirgi o`zbek tilidagi so`zlar bilan qiyoslashda asosan so`zlarning shaklan va ma`no jihatidan o`xshashligi va farqli jihatlarini aniqlash va taqqoslash bilan birga ularning qo`llanilish o`rinlariga ham ahamiyat berish lozim. “Bulg`atil mushtaq “ qo`lyozmasini ko`zdan kechirganda undagi so`zlar qandaydir mavzuga doir matni tarjima qilish uchun yozilgandek , chunki undagi so`zlarni faqat turkumga ko`ra tarjima qilish noto`gri tarjimaga sabab bo`ladi. Balki muallif lug`at foydalanuvchisiga qulay bo`lishi uchun uni kontekstga ko`ra tuzgandir. Bu fikrlar hali o`z isbotini topgani yo`q. Quyida qo`lyozmaning ikkinchi bobidagi ayrim so`zlar keltirilgan:

№	Arabcha	Qipchoq turkiy	O`zbekcha
	الأَرْضُ	يَزْ	yer
	الْفَلَا	يَزِي	tekislik
	الْبَرِيَّةُ	يَبْنُ	Cho`l, biyobon
	الأَرْضُ الْجَبْحَاصُ	قِرْ	qir
	الْجَرْدَا	إِقْرُقْ	quruqlik
	السَّبْحَةُ	تَبْرُ	Sho`r yer
	الْجَبَلُ	طَاغُ	Tog`
	الْحَجْرُ	طَاشُنْ	tosh
	التَّلَّ الْكَبِيرُ	أَيْكُ	Katta tepalik
	التَّلْعَةُ	بُنَا	Ko`p, uzun
	الشَّجْرَةُ	دِرْكُ	daraxt
	وَرَقَةٌ وَاحِدَةٌ	يَبْرُقُ	Yaproq, barg
	بَلْزُوحُ الشَّعْرِي الْعَبْ	أَرْمَنْ	O`rmon
	الْعِرْقُ	طَمْرُ	Ildiz, tomir

“Bulg`atil mushtaq” qo`lyozmasidagi so`zlarning ketma –ketligiga ahamiyat bersak , Jaloliddin at-Turkiy har bir so`zning sinonimligiga, so`z turkumlarining o`rniga alohida e`tibor qaratganligi tadqiqotimizni ancha osonlashtiradi. Qo`lyozma lug`atni



tuzishda muallif uni turli boblarga ajratib olgan masalan, predmet nomlari, ya`ni ot so`z turkumiga oid so`zlar, ish- harakat bobi ya`ni fe`l so`z turkumi, ravish bobi kabilarga ajratish barobarida , yirik boblar ham ayrim o`rinlarda mavzularga bo`lingan, ayrimlari esa kichik boblarga yoki fasllarga bo`linganligini ko`rishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan jadvalda “Bulg`atil mushtaq” qo`lyozmasining ikkinchi bobining birinchi faslidagi so`zlar berilgan bo`lib, ulardan birinchi so`z “yir” ya`ni “yer” so`zini arabcha variantdagi “al-ardu” so`zi orqali oson topish mumkin. Qolaversa, bu keltirilgan bobning mavzusini muallif “yer” deb nomlaganligidan anglashimiz kerakki, o`zbek tilidagi “yirmoq” fe`liga bu so`zning aloqasi yo`q. Keyingi so`zlar esa “tekislik”, “cho`l”, “qir” kabi o`zaro bog`liq so`zlar ketma ket kelganligidan ularning asl ma`nolarini topish qiyin emas. Ulardan “Yoziy” – “tekislik”, “yobon” – “cho`l” so`zlari “Qissasi Rabg`uziyda keltirilgan bo`lib, zamonaviy o`zbek tilida qo`llanilmaydi:

*“O`zgalar ko`p olamunchuq tuzdilar el tizginib,  
Man guxar dur yinju tuzdum kezmadim yobon yozi.”<sup>2</sup>*

Bu yerda “yobon kezmadim”, jumlasini keltirilgan , uning ma`nosi “cho`l biyobon kezmadim” deb tushunsak, “yobon “qipchoq-turkiy so`zning o`zbek tilimizdagi “biyobon” so`ziga o`xshashligini ko`rish mumkin, lekin “bi-” old qo`shimchasi o`zbek tilida emas balki arab tilida mavjud bo`lib “ bilan “, “orqali” kabi ma`nolarni anglatadi. Demak, XIV asrda “yobon “tarzida qo`llanilgan so`z arab tili ta`sirida “biyobon “ shaklida kelgan bo`lishi ehtimoldan yiroq emas.

“Qir” so`zi esa o`zgarishga uchramagan holda o`zbek tilida qo`llaniladi. “Tabiz” so`zi esa “Devoni lug`otit turk”da “sho`r yer” (солончак) deb tarjima qilingan<sup>3</sup> va arabcha variant (السَّبْحَة) " as-sabhatu” ham aynan shu ma`noni anglatadi. “Tog”, “tosh” so`zlari ham, xuddi “qir” so`zi kabi hozirgi o`zbek va qadimgi qipchoq- turkiy tilda aynan bir xil ma`noda kelgan.” Ayuk” so`zi esa arabcha variantidan tarjima qilinsa “katta tepalik” ma`nosini anglatishi ma`lum bo`ladi. “Buta” so`zi “ko`p”, “uzun” (vaqtga nisbatan)“Devoni lug`otit turk”da ravish ma`nosida berilgan bu so`zni o`zbek tilidagi “buta” (daraxt) so`ziga aloqasi yo`qdir, garchi o`zbek tilida ham “buta” so`zi mavjud bo`lib, ushbu bobda kelgan so`zlar bilan turdoshlik hosil qilib, yuqoridagi so`zlar kabi ot so`z turkumiga oid bo`lsa ham bu so`zning o`zbek tilidagi “buta” (daraxt) so`ziga aloqasi yo`qdir. Sababi bu so`zning arabcha variantining ma`nosi “uzun“ deb tarjima qilinadi. Shu o`rinda savol tug`iladi, muallif bu bobda ot so`z turkumidagi so`zlarni keltirgan bo`lsa nima uchun bu ravishni kiritdi. Bu o`rinda muallif gap tuzishga qulay bo`lishi uchun “uzun” (vaqt) so`zini kiritgan bo`lishi ehtimoldan holi emas. Ya`ni, “yer”, “tekislik” so`zlari, “cho`l”, “quruqlik”, “sho`r yer” ,

<sup>2</sup> Nosiruddin Rabg`uziy “Qissasi Rabg`uziy” T.:Yozuvchi “ nashriyoti 1991,214-b.

<sup>3</sup> Дивани лугатит турк/Перевод, предисловие М. Ауэзовой – Алматы : Дайк-пресс, 2005, 348 с.



soʻzlari hamda “togʻ” va “tosh” soʻzlarining oʻzaro mantiqiy aloqasi mavjud boʻlganidek, “katta tepalik” va “uzoq vaqt” (uzun) soʻzlari oʻrtasida ham bogʻliqlik mavjud.

Navbatdagi soʻzlar “daraxt”, “yaproq”, “oʻrmon”, “tomir”(ildiz) soʻzlari ham yuqoridagi soʻzlar kabi oʻzaro bogʻliqlikka ega va bu soʻzlarning barchasi qadimgi qipchoq-turkiy va hozirgi oʻzbek tilida aynan bir xil shakl va maʼnoga ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Jamoliddin at-Turkiyning XIV asrga oid "Kitabu bulgʻatil mushtaq fi lugʻatat turk val qifchaq" qoʻlyozmasidagi soʻzlarni tadqiq etish orqali biz avvalo, bugungi zamonimiz va oʻtimishimizni bogʻlab turuvchi koʻpriq qurishga erishishimiz mumkin. Yuqorida taʼkidlanganidek, hozirgi oʻzbek tilimizning asosini turkiy til tashkil etadi va “Bulgʻatil mushtaq “ qoʻlyozmasi bu fikrlarning yana bir isbotidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Hozirgi Oʻzbek adabiy tili: Akademik litseylar uchun maʼruzalar matni/ A.Anorbekova, Sh.Mirzayeva. – T.: Noshir, 2011. – 316 b.
2. Nosiruddin Rabgʻuziy “Qissasi Rabgʻuziy” T.:”Yozuvchi “ nashriyoti 1991,214-b.
3. Дивани лугатит турк/Перевод, предисловие и комментарии М. Ауэзовой – Алматы : Дайк-пресс, 2005, 348.
4. Hasan, Botirbek. “Arabcha- oʻzbekcha boshlangʻich lugʻat”, T.: “Movaraunnahr”, 1996.
5. Nosiruddin Rabgʻuziy “Qissasi Rabgʻuziy” T.:”Yozuvchi nashriyoti “1991
6. Oʻzbek tilining izohli lugʻati . “Oʻzbekiston nashriyoti” T.: 2021
7. Oʻzbekcha- arabcha lugʻat: 7ming soʻz va ibora// Lugʻat tuzuvchilar: N. Ibrohimov, B. Hasanov, O Musayev va boshq.; Masʼul moharrir: A. Rustamov/- T.: .Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2000.